



## 2020- yil yanvar-may oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahrida jami **6 840,4** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2019- yilning yanvar – may oylariga nisbatan **97,0 %** ni tashkil etdi.




### 2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 6,9 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **116,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,0 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **125,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **6,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **128,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **44,1 %**) o'sishidir.




**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.06.2019- yil	01.06.2020- yil	
<b>Toshkent sh.</b>	<b>5 785</b>	<b>7 060</b>	<b>122,0</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Bektemir</b>	<b>113</b>	<b>152</b>	<b>134,5</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>785</b>	<b>903</b>	<b>115</b>
<b>Mirobod</b>	<b>492</b>	<b>610</b>	<b>124</b>
<b>Olmazor</b>	<b>504</b>	<b>598</b>	<b>118,7</b>
<b>Sergeli</b>	<b>369</b>	<b>486</b>	<b>131,7</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>424</b>	<b>537</b>	<b>126,7</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>759</b>	<b>924</b>	<b>121,7</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>439</b>	<b>543</b>	<b>123,7</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>780</b>	<b>931</b>	<b>119,4</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>630</b>	<b>746</b>	<b>118,4</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>490</b>	<b>630</b>	<b>128,6</b>



## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining 01.06.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi % da)




**Ma'lumot uchun:** shaharda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Yashnobod tuman (13,2 %), Mirzo Ulug'bek tuman (13,1 %) va Olmazor (12,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar - may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 675,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar - may oylariga nisbatan **104,2 %** ga koʻp bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **1,5 %** punktga koʻpayib, **24,5 %** ni tashkil etdi.




### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Yunusobod tuman (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **18,2 %** i yoki 2019- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **139,4 %**), Mirobod (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **18,1 %** i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **182,4 %**), va Mirzo Ulugʻbek tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **13,3 %** i, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **131,1 %**) ga toʻgʻri keldi.

Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **64,6 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,1 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **99,2 %** ni tashkil etgan holda **4 418,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **10,9 %** ni tashkil etdi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,6 %** punktga kamaygan yoki **746,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **74,4 %** ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. soʻm




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **182,2** mlrd. soʻm yoki 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **54,3 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **6 658,2** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati **99,2 %** ni tashkil etdi. Ularning shahardagi tutgan ulushi mos ravishda **2,7 %** va **97,3 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar-may

63,0 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 63,0 % i yoki **4 311,8** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

82,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 382,6** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **82,5 %** ni tashkil etdi.

54,6 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2 411,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 54,6 % ni tashkil etdi.

69,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **517,9** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 69,4 % ni tashkil etdi.





**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-may oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
<b>Toshkent sh.</b>	<b>6 804,4</b>	<b>97,0</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Bektemir</b>	<b>302,8</b>	<b>96,3</b>	<b>4,4</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>718,2</b>	<b>97,1</b>	<b>10,5</b>
<b>Mirobod</b>	<b>700,9</b>	<b>96,8</b>	<b>10,2</b>
<b>Olmazor</b>	<b>703,5</b>	<b>97,4</b>	<b>10,3</b>
<b>Sergeli</b>	<b>448,2</b>	<b>96,8</b>	<b>6,6</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>352,4</b>	<b>96,3</b>	<b>5,2</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>608,8</b>	<b>96,6</b>	<b>8,9</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>706,9</b>	<b>97,0</b>	<b>10,3</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>928,2</b>	<b>97,6</b>	<b>13,6</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>788,5</b>	<b>96,7</b>	<b>11,5</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>582,0</b>	<b>97,3</b>	<b>8,5</b>

\*Tumanlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Shaharda iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish  
ishlari,% da

2019- yil yanvar-may

18,9



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

20,3



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

60,8



Binolar va inshootlarni  
qurish

2020- yil yanvar-may

22,1



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

17,8



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

60,1



Binolar va inshootlarni  
qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan hamda yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Binolar va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **16,3 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,5 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,6 %** punktga ko'payib, **65,6 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,1 %** punktga kamayib, **18,1 %** ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **64,5 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **11,6 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **35,5 %** (**11,6 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **4,2 %** punktga ko'paydi va **14,7 %** ni tashkil etdi. Qolgan **85,3 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **4,2 %** punktga kamaydi.





## Tumanlar kesimida qurilish ishlari jamiga nisbatan % da.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Mirobod (tumandagi qurilish hajmining 43,2 % ni tashkil etdi va Yunusobod (mos ravishda 32,8 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.



Tumanlar kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-may oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Yunusobod t.  
928,2

2

Mirzo Ulug'bek t.  
718,2

1

Yakkasaroy t.  
788,5

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Sergeli t.  
448,2

2

Bektemir t.  
302,8

1

Uchtepa t.  
352,4

3





## TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

---

### Toshkent shahar statistika boshqarmasi Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **Sh.Samiyev**  
Aloqa telefoni: **(71) 230-88-19**